


2020-yilning yanvar oyida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2020-yilning yanvar oyida viloyat korxonalarini tomonidan 691,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi* 101,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish—42,0 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat—8,6 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash—8,4 % ga o'sishi kuzatildi.

2020-yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2020-yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi



Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash.

Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 1,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tog`-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajm indeksi 108,4 % ni tashkil etganini kuzatish mumkin.



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2020-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 336,2 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 48,6 %ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 7,0 %ni (2019-yil yanvar oyida–5,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali–3,7 % (4,4 %), o'rta-quyi texnologiyali–17,1 % (18,9 %) va quyi texnologiyali–72,2 % (71,1 %) tashkil etdi.


Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'rta-yuqori
texnologiyali





2019-yil yanvar

O'rta-quyi
texnologiyali



2020-yil yanvar



Yuqori texnologiyali



Quyi texnologiyali

Jami sanoat tarkibida ichimliklar ishlab chiqarish-2,5 % (2019-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 218,9 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish 3,4 % (155,7 %), qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish-0,1 % (142,8 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish-0,4 % (137,7 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish-2,7 % (130,5 %), kiyim ishlab chiqarish-4,6 % (123,9 %), mebel ishlab chiqarish-0,3 % (110,5 %) va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish sohasi-1,1 % (100,4 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda boshqa tolali materiallardan(yog`ochdan tashqari) olingan selluloza-129,9 %, etilen polimerlardan qoplar va sumkalar-108,5 %, yo'l qoplamlari uchun asfaltli aralashmalar-110,3 % ga oshdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvarga nisbatan, % da
Sellyuloza, ming t 90 %			
136,7		177,6	129,9 ↑
Un, ming tonna			
3,7		3,5	98,1 ↓
Kalava ip, tonna			
371,0		215,7	74,1 ↓
Paxta tolasi, ming tonna			
4,9		4,1	83,1 ↓
Paxta urug'i, ming tonna			
7,6		6,3	83,4 ↓
Aroq, ming litr 100 % spirit			
17,8		22,6	127,2 ↑



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 337,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 48,8 % ni) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 88,1 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2020-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvarga nisbatan, % da
--------------------------------------	----------------------	--------------------------------------	----------------------------------

Elektroenergiya, mln. kVt/s

1724,4



1481,4

85,9



Issiqlik energiyasi, ming Gkal

17,2



18,3

104,5





Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,3 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar-47,8 % ga, oqova suvlarni yo'qotish, shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar-40,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2020-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvarga nisbatan, % da
--	----------------------	--	--

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari, mln. so`mda

858,3



1501,7

175,0 ↑

Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so`mda

620,0




1136,8

183,4 ↑

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 192,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 7,5 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 27,8 % ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va 2019-yil yanvarga nisbatan o'sishi sur'ati



2019-yilning yanvar oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 62,1 % dan 2020-yilning yanvar oyida 59,1 % ga kamayishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 16,6 % ni (2019-yil yanvar oyida 8,4 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha 2020-yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvarga nisbatan o'sishi, % da
Sirdaryo viloyati	192,2	100,0	107,5
Guliston shahri	28,4	14,8	109,2
Shirin shahri	1,7	0,9	101,0
Yangiyer shahri	6,9	3,6	137,9
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut tumani	11,4	5,9	96,9
Guliston tumani	5,7	3,0	102,3
Mirzaobod tumani	11,9	6,2	96,8
Oqoltin tumani	5,6	2,9	107,4
Sardoba tumani	4,6	2,4	95,6
Sayxunobod tumani	13,3	6,9	102,5
Sirdaryo tumani	93,3	48,5	113,7
Xovos tumani	9,4	4,9	95,5


Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 122,7 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 17,7 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da

2019-yil yanvar



2020-yil yanvar




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar



Boshqa korxonalar

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi-93,4 % va suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarining ulushi-6,6 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining
sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

	2020-yil yanvar, mlrd. so'm	2019-yil yanvarga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	691,9	101,0
Guliston shahri	73,3	100,3
Shirin shahri	316,7	84,7
Yangiyer shahri	32,2	145,6
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	14,2	63,0
Guliston tumani	13,9	125,3
Mirzaobod tumani	17,9	90,8
Oqoltin tumani	26,6	118,0
Sardoba tumani	22,0	99,6
Sayxunobod tumani	25,5	115,1
Sirdaryo tumani	137,0	114,6
Xovos tumani	12,6	90,2

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 45,8 %), Sirdaryo tumani (19,8 %), Guliston shahri (10,6 %), Yangiyer shahri (4,7 %), Oqoltin tumani (3,8 %), Sayxunobod tumani (3,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2020-yil yanvar oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2019-yil yanvar oyiga nisbatan, % da




Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Yangiyer shahri (2019-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 145,6 %), Guliston tumani (125,3 %), Oqoltin tumani (118,0 %), Sayxunobod tumani (115,1 %) va Sirdaryo tumani (114,6 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Yangiyer shahri (2019-yil yanvar oyiga nisbatan 137,9 %), Sirdaryo tumani (113,7 %), Guliston shahri (109,1 %), Oqoltin (107,3 %), Sayxunobod tumani (102,5 %) iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta ulushi Sirdaryo tumani (viloyat iste'mol tovarlari hajmida 48,5 %), Guliston shahar (14,8 %), Sayxunobod (6,9 %) va Mirzaobod (6,2 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

2020-yil yanvar oyida hududlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishining, 2019-yil yanvar oyiga nisbatan o'sishi, % da




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Shirin shahrida (17025,5 ming so'm), Sirdaryo tumanida (1079,1 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (825,4 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 229,3 ming so'm bo'lgani holda Sirdaryo tumanida-734,9 ming so'mni, Guliston shahrida-316,1 ming so'mni, Mirzaobod tumanida-164,9 ming so'mni va Yangiyer shahrida-161,6 ming so'mni tashkil etdi.

**2020-yil yanvar oyida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarish,
ming so'm**

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
Sirdaryo viloyati	825,4	229,3
Guliston shahri	816,6	316,1
Shirin shahri	17025,5	93,0
Yangiyer shahri	751,3	161,6
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	110,6	88,8
Guliston tumani	194,8	79,1
Mirzaobod tumani	248,1	164,9
Oqoltin tumani	515,7	108,8
Sardoba tumani	337,3	70,1
Sayxunobod tumani	333,2	174,4
Sirdaryo tumani	1079,1	734,9
Xovos tumani	132,6	99,3

2020-yil yanvar oyida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi 2019-yil yanvar oyiga nisbatan, % da




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 256,1 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik biznesning umumiyl ishlab chiqarishdagi ulushi 37,0 % ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mirzaobod tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Boyovut tumani (100 %), Guliston shahrida (83,2 %), Sayxunobod tumanida (71,1 %), Sirdaryo tumanida (70,2 %) kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Guliston tumanida (42,6 %), Oqoltin tumanida (29,5 %) va Shirin shahrida (0,6 %) kuzatildi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 1767 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'ssatmoqda, shundan 491 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 27,8 %) Guliston shahriga, 312 tasi (17,9 %) Sirdaryo tumaniga, 171 tasi (9,7 %) Yangiyer shahriga to'gri kelmoqda.

**Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2020-yil yanvar)**



**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2020-yil yanvar)**

2020-yil yanvar oylarida viloyatda 40 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 57,5 foizi Xovos tumani, Sirdaryo tumani va Guliston shahriga to'g'ri keladi.



**Sirdaryo viloyati Statistika
boshqarmasi**
Sanoat statistikasi bo`limi
Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23